

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALOHİYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Kaxarov Jasur Abulqosimovich</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Rahmonov Shuxrat Shavkatovich</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНING НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Shonazarov Jamshid Shuxratovich</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR*Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH

JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306

Узакова Гўзал Шариповна

ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА

ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325

Пулатова Нодирахон Собиржонова

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ

ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332

Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich

MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI

HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В

ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345

Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li

TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356

Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368

Утапов Фурқат

ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ

МАҚОМИ 369-374

Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li

XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH

TENDENSIYASI 375-381

Назарова Марҳабо

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В

УЗБЕКИСТАНЕ 382-386

Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич

ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ

МАСАЛАЛАРИ 387-400

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ

МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406

Abdikhakimov Islombek

LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI*Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*

TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK

YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOYIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

THE ROLE AND SPECIFICITY OF ETHNOGRAPHIC FOLKLORISMS IN THE SYSTEM OF FOLKLORISMS

Turayeva Iroda Sheramatovna

Karshi State University, PhD student

E-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru

Abstract. The works express the use of folklorism in all genres, its use as a scientific and, especially, a social phenomenon. The phenomenon of folklorism, which directly or indirectly shows the ability of creators to creatively use folklore material in their work, shows their ability to use folklore in speech art. The development process and types of folklorisms are explained using examples. The article emphasizes simple and complex forms of folklorisms and describes in detail the features of the classification.

Key words: folklorism, organic folklorism, structurally informed folklorism, existential folklorism, generative folklorism, constructive folklorism, everyday folklorism, transformative folklorism, rationalistic folklorism, simple folklorism, intuitive folklorism, natural folklorism, analytical folklorism, synthesized folklorism, stylized folklorisms.

FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNINI VA SPETSIFIKASI

To'rayeva Iroda Sheramatovna

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Folklorizmlarning barcha janrlarda qo'llanilishi, uning ilmiy, qolaversa, ijtimoiy hodisa sifatida ishlatilishi asarlarda o'z ifodasini topgan. Ijodkorlarning bevosita yoki bilvosita o'z ijodida folklor materialidan ijodiy foydalanish mahoratini ko'rsatuvchi folklorizm hodisasi so'z san'atida folklorlardan foydalanishdagi mahoratini ko'rsatadi. Folklorizmlarning rivojlanish jarayoni, turlari misollar yordamida yoritilgan. Maqolada folklorizmlarning oddiy va murakkab ko'rinishlariga ham alohida urg'u berilgan va tasniflash xususiyatlari batafsil keltirilgan.

Kalit so'zlar: folklorizm, organik folklorizm, strukturaviy axborotli folklorizm, ekzitsensial folklorizm, generativ folklorizm, konstruktiv folklorizm, kundalik folklorizm, transformativ folklorizm, ratsionalistik folklorizm, sodda folklorizm, intuitiv folklorizm, tabiiy folklorizm, analitik folklorizm, sintezlashgan folklorizm, stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N37.1>

Kirish. Har bir davr ijodkorlari folklorizmlardan o'ziga xos uslubda mahorat bilan foydalangan. Folklorizm termini aslida inglizcha "folklorist is must" so'zidan olingan bo'lib, badiiy ijodning barcha turlarida – she'riyat, nasr, dramaturgiya, shuningdek, publitsistikada qo'llanadi. Uni folklor tarixida birinchi bo'lib XIX asr ikkinchi yarmida fransuz olimi P.S. Biyo qo'llagan. "Folklorizm" atamasi rus adabiyotshunosligida o'tgan asrning 30-yillarda taniqli

folklorshunos M. K. Azadovskiy tomonidan ishlatilgan. O'zbek adabiyotshunosligida esa uni birinchi bo'lib B.Sarimsoqov qo'llagan.

Folklorizm nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Ushbu hodisa zamonaviy jamiyatning turli sohalarida folklorning rivojlanishini ko'rsatadi.

Folklorizm – bu so'z san'atining professional janrlarida ijodkorlarning xalq ma'naviy merosi (og'zaki ijodi namunalari)dan foydalanish mahoratini namoyon etadi.

Folklorizm ikkita asosiy modifikatsiyada rivojlanadi:

1. Folklorning kundalik faoliyati an'analariga asoslangan haqiqiy shakllarda.
2. Folklorning ayrim hodisalari hamda elementlarini badiiy ta'sir natijasida o'zgartirish, qayta ishlash yoki uslublash asosida.

Folklorizm – bu turli yozuvchilarda notekis namoyon bo'ladi. U folklorning mafkuraviy va estetik rivojlanishi bilan ajralib turadigan badiiy adabiyotning xususiyatidir.

Ijodkorlarning bevosita yoki bilvosita o'z ijodida folklor materialidan (uning janri, syujet motivi, obrazlari va ohangidan) ijodiy foydalanish mahoratini ko'rsatuvchi folklorizm hodisasi so'z san'atida folklordan foydalanish, shuningdek, og'zaki folklor san'atining u yoki bu asari yaratilganidan farqli geografik yoki vaqtinchalik sharoitlarda folklori tushunish, moslashtirish va o'zgartirishni anglatadi.

Folklorizmlarning turlari ko'p. Ular o'ziga xos yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi. Etnografik folklorizm esa ularning bir turidir. Undan boshqa folklorizmlarning yana quyidagi turlari mavjud:

1. Organik folklorizm – monofolklor an'analarining boshqa qutbga o'tishidan hosil bo'ladi. Yarim adabiy yarim folklorga aloqador asarlarga nisbatan sintezlashgan hodisaga nisbatan organik folklorizm atamasini qo'llash mumkin. Organik folklorizm og'zaki adabiyot asarlariga xosdir. Birinchi navbatda, og'zaki san'at rivojlanishining monofolklor bosqichi ikki qutbga ega: bitta qutb hali ham folklor, ikkinchisi esa endi folklor emas, lekin hali to'liq adabiyot ham emas. Odatda, bu muallifning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'z ichiga olgan mifofolklor va qahramonlik eposining monumental asarlaridir. Bunga "Mahobharat", "Ramayana", "Rigveda", "Odissey", "Iliada", "Kalevala" va boshqalar misol bo'la oladi. Ular folklorizatsiyaga uchragan va to'g'ridan-to'g'ri folklor asosiga ega.

2. Strukturaviy axborotli folklorizm – asl yoki chet el folkloriga tegishli parchalar, xronikalardan tashkil topadi. Strukturaviy axborotli yoki tarkibiy-informatsion folklorizm Vizantiya va Janubiy slavyan yozma an'analariga yo'naltirilgan yilnomalarda juda aniq ifodalangan, ammo folklorda emas. Xronikalarning folklorizmi ochiq turga kiradi, chunki ular tarkibiy element sifatida teng etnik va etnik bo'lmagan folklori o'z ichiga oladi.

3. Ekzitsensial folklorizm – milliylik va maishiy muhitga asoslangan, tarixiy jihatdan to'g'ri folklor detallari bilan ifodalangan asarlar.

4. Generativ folklorizm – folklor asosiga ega bo'lgan adabiy, epik, lirik yoki boshqa asar syujeti. Bunda ko'pincha xalq hikoyalari asosida asarga generativ kuch bag'ishlanadi. Biroq, adabiy asarlarda muallifning ma'lum darajada folklordan farq qiladigan qarashlari ham beriladi. Bunda afsonalar asarning o'ziga xos milliy syujetini keltirib chiqaradi.

Ayrim romanlarni janr-uslub xususiyati muhim axloqiy va falsafiy muammolarni ko'taradigan asarlarga xos bo'lgan kundalik va generativ folklorizmning sinkretizmi deb hisoblash mumkin.

5. Konstruktiv folklorizm – folklor elementlarini turli maqsadlar bilan muallif niyatiga bo'ysundirish, ularning umumiy funksional yo'nalishini ta'kidlash hodisasi. Folklorizmning konstruktiv turi asosida yaratilgan asarlarda, odatda, axloqiy-psixologik, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy (ontologik) muammolar birlashtiriladi. Ushbu turdagi folklorizm, odatda, o'zini muallifning mifofolkloremalarini ajratib ko'rsatishga imkon beradigan, ko'pincha uning mifologik asoslarga yo'naltirilgan folklor-mifologik chizig'ini to'liq ongli ravishda qurish orqali namoyon qiladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanida erkin tabiatdagi bo'rilarning muqaddas-erkinligiga tajovuz inson hayotidagi fojialarga tajovuzlarga parallel keltirilgan. Yoki shu adibning "Asrga tatigulik kun" romanida naymanlar onasining manqurt o'g'li qo'lidan fojiali o'limi afsonaviy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va futuristik tarkibiy qismlarga ega bo'lib, ular ongsizlik dahshati mavzusi bilan birlashtirilgan. Ushbu fonda o'z-o'zidan paydo bo'lgan folklorizmning o'ziga xos xususiyatlari juda aniq ko'ringan. Bu folklor – etnografik voqelikka emas, balki odamlarning folklorga xos tafakkurining mohiyatiga qaratilgan bo'lib, unda real hayotni tasdiqlovchi shiddatli impuls uyg'unlashtiruvchi apollonik prinsip bilan muvozanatlanadi.

Konstruktiv folklorizm o'ziga xos ruhiyatga, badiiy fikrlashga, keng ko'lamli dunyoqarashga, alohida ichki e'tibor, so'zsiz samimiylik va hissiyotlar energiyasiga ega mualliflarga xosdir.

Keltirilgan folklorizm turlarining bu nomlari ma'lum darajada shartlidir. Ushbu tasnifni R.M.Kovaliyova amalga oshirgan [1]. U sharqiy slavyan folklori va adabiyotida folklorizmlar tipologiyasini o'rgangan.

Odatda, shoir yoki yozuvchilar ijodidagi folklorizmlarning turlari faqat keltirilgan misollarga murojaat qilish orqali oydinlashtiriladi. Bunda qaysi bir turdagi folklorizm muallif uchun alohida tur, dominant bo'lishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, folklordan foydalanish natijalari folklor → adabiyot yo'nalishi bo'yicha integrativ jarayonlarning tabiati, shuningdek, folklorizmning tipologik konstantalari o'rganilishi lozim. Natijada folklorizmning yana bir nechta turlari borligi ravshanlashadi. Jumladan:

1. **Kundalik folklorizm.**
2. **Transformativ folklorizm.**
3. **Ratsionalistik folklorizm.**
4. **Sodda folklorizm.**
5. **Intuitiv folklorizm.**
6. **Tabiiy folklorizm kabi.**

Bundan folklorizmlarning soni ancha ko'p ekani anglashiladi. Ularning har birini alohida tadqiq qilish mumkin.

Kundalik folklorizm asarlarga xos bo'lib, unda tarixiy jihatdan to'g'ri folklor-etnografik tafsilotlar bilan to'yingan kundalik fon ortida uning tayanchi bo'lgan millat ruhi ko'rinadi.

Transformatsion folklorizm generativ folklorizmga o'xshashligi bilan e'tiborni tortadi. U ham muayyan adabiy asarning folklor bilan bog'lanishi natijasidir. Unda nizoli dialog, munozara, kelishmovchilik, rad etish kabilar ifodasida yangi semantik tarkib eski shakllar orqali ifoda etiladi. Syujet majoziy uslubga asoslanadi. Masalan, sehrli yoki hayvonlar haqidagi ertaklarga xos poetik an'analardan foydalaniladi. Buyuk o'zbek mutafakkir shoir Alisher Navoiyning "Lisonut tayr" dostoni bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, bu lirik-falsafiy dostonning yakuni qushlar o'limi bilan tugasa-da, baribir asosiy xulosasida optimizm mavjud.

Yoki Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida dastlab rosa xo‘rlangan, sodda, tortinchoq xarakterli Yo‘lchi asar yakuniga borib xuddi ertak qahramonlari kabi o‘zi va xalqining baxti uchun kurashga intilgan qo‘rqmas, jasur, botir, mag‘rur yigit ramziga aylanadi.

Ratsionalistik folklorizm, unda tom ma‘noda barcha folklor elementlari mualliflik g‘oyasiga bo‘ysunadi va muallifning o‘zi nafaqat buni yashirmaydi, balki ularning umumiy funksional yo‘nalishini ta‘kidlaydi. Bu ko‘plab asarlarga xosdir. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani o‘lim soyasi, to‘y quvonchi voqealarini o‘z ichiga olgan asarlardan biri bo‘lib, yozuvchi ular oqali ijtimoiy va shaxsiy fojiali voqealar qanday qilib vujudga kelishi mumkinligi haqidagi g‘oyani yetkazishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun adib o‘z asarida urush, to‘y, oila, sevgi, o‘lim kabi g‘oyalar bir-biriga zid bo‘lsa-da, ularni bir umumiy g‘oya ostida birlashtira olgan.

Muallifning xronotopizatsiyasi va folklordagi tasvirlarning semantikasini o‘z davri voqealariga moslab o‘zgartirib tasvirlash mahorati uning ratsionalligini ham namoyon etadi. Masalan, Isajon Sulton “Boqiy darbadar” romanida mifologik motivlardan foydalanib, folklorga ratsionalistik yondashuvni to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyon etadi.

Folklorizmning bu holati, uning ushbu eng ifodali ko‘rinishi adabiyotimizdagi an‘anaviy hodisalardan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotda ham uchraydi. Masalan, Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi ikkinchi doston – “Farhod va Shirin”da bosh qahramonning ajdar bilan olishuvi motiviga muallif ratsionalistik yondashib, u orqali aslida insonning o‘z nafsini ustidan g‘alabasini tasvirlagan.

Muallif dunyo va shaxs konsepsiyasini ochish uchun ratsionalistik folklorizm sifatida o‘quvchi tomonidan tan olingan an‘anaviy obrazlar va motivlarni tanlab, ularni o‘z davri voqeliklariga bog‘liq ravishda o‘zgartirib, unga aloqador semantikani kengaytirish orqali mafkuraviy va badiiy yetishmovchilikni to‘ldiradi. Folklorizmlar ijodkorga xalq ijodiyoti ruhiga yoki majoziy paradigmalarga mukammal did bilan ergashishga yoki ikkita chiziqni uyg‘un ravishda birlashtirishga imkon beradi.

Sodda folklorizm taqlid paytida sodir bo‘ladiki, bu uni tushunishning va farqlashning eng oson usulidir. Ammo bunda stilizatsiyadagi kabi folklorning haqiqiy namunalari emas, balki professional va havaskor mualliflarning ongida mustahkamlangan psevdofolklor namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, faol sodda folklorizm XX asr boshlarida xalq nomarosimiy lirikasi ta‘sirida, xususan, ularning ruhida yozilgan she‘rlar, qo‘shiqlar misolida ko‘rinadi.

O‘zbek adabiyotshunoslari folklorizmlarni sifatiga qarab: **a) oddiy folklorizm; b) murakkab folklorizm** ko‘rinishida tasniflaydilar. Jumladan, B.Sarimsoqov folklorizmlarni bunday tasniflashda P.S.Vixodsev qarashlariga tayanib [2], badiiy matn tarkibida qo‘llangan va tez ko‘zga tashlanib turadigan sodda shaklli xalq maqol, matal, iboralarni “oddiy folklorizm” sifatida ko‘rsatsa, I.Yormatov oddiy folklorizmni yana qo‘llanishiga ko‘ra: a) asl oddiy folklorizmlar; b) qayta ishlangan oddiy folklorizmlarga ajratgan [3].

B.Sarimsoqov murakkab folklorizmlar haqida gapirar ekan, uning uch ichki ko‘rinishini: **a) analitik folklorizm; b) sintezlashgan folklorizm; v) stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar** sifatida ta‘kidlaydi [4]. Bunda olim ushbu folklorizm tiplari tuzilishiga, badiiy asar to‘qimasida bajaradigan vazifasining murakkabligiga qarab, ularga nisbatan “murakkab” sifatlovchisini qo‘llagani ravshanlashadi.

Analitik folklorizmlar, odatda, badiiy asar to‘qimasi, uning yetakchi g‘oyasi bilan organik birikib keta olmaydi. Qolaversa, asar syujetining istalgan bir o‘rnida epizod sifatida

keltirilishi mumkin. U.Normatov “Nasrimiz an’analari” kitobida ta’kidlashicha, oddiy folklorizm va analitik folklorizm yozma adabiyot tarkibida yordamchi detal sifatida qo’llanadi.

B.Sarimsoqovning fikricha, analitik folklorizmning asosiy vazifasi asar bosh g’oyasini qabartirib ifodalash, unga ramziy, falsafiy ruh bag’ishlashdan iborat [5]. Uningcha, analitik folklorizm o’zining folklordagidek to’liq shaklida yoki mazmunan saqlansa-da, shaklan o’zgartirilgan, ko’pincha, ishlov berilgan holda uchraydi.

I.Yormatov analitik folklorizmning ko’proq asar bosh g’oyasi yoki mavzusiga ramziy aloqador bo’lib, qahramon ruhiyatidagi ichki kolliziyani ochib berishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [6].

Darhaqiqat, analitik folklorizm asar syujetida ajralib, ko’rinib turadi. Bunda tanlangan kichik janrdagi folklor namunasi (masalan, qo’shiq, latifa, afsona, rivoyat, naql kabilar) asar syujetiga singdirilmay keltiriladi. U she’riyatdan ko’ra nasrda keng tarqalgani kuzatiladi. I.Yormatov uni “ishchan folklorizm” [7] sifatida e’tirof etadi. Masalan, O’Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida yozuvchining bolalik xotialari bilan bog’liq shunday tasvir keltirilgan: “Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to’lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

Oymomaxon xulla,
Qanotlari tilla.
Subhon Ollo sizga,
Umr bersin bizga...

Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo’shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to’xtab qolar, yulduzlar o’ychan ko’zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi [8]. Matnda o’zbek xalqining yangi oy chiqishi bilan bog’liq e’tiqodiy qarashlari o’z ifodasini topgan. Ajdodlarimiz yangi oy chiqqan paytda osmonga qarab ezgu niyatlar qilib, yangi oylarga ham tinch, xotirjam, sog’salomat yetkazishini tilab duoga qo’l ochishadi.

Agar tanlangan folklor materiali davr ruhiga moslab badiiy asar janri, syujeti, obrazlari tabiatiga mahorat bilan singdirib yuborilishi natijasida uning tarkibidan ajratib olib bo’lmasa, u **sintezlashgan folklorizm** hisoblanadi. U folklorizmning boshqa ko’rinishlaridan farqli o’laroq, o’z ichiga oddiy, analitik, stilizatsion folklorizmlarni qamrab oladi.

Sintezlashgan folklorizm. L.Sharipova aytganidek, analitik folklorizmni aniqlash oddiy folklorizmni topish singari osondir. Ammo sintezlashgan folklorizmni topish ancha mushkul. Chunki sintezlashgan folklorizm yuzaga kelishi uchun tanlangan folklor materiali asar syujetiga singib ketishi lozim. Analitik folklorizm asardan olib tashlansa, asar mohiyatiga jiddiy zarar yetmaydi, lekin asardagi o’ziga xos jozibaga sezilarli putur yetadi. Kitobxon ruhiga ta’sir qiluvchi vositalardan biri boy beriladi, biroq asar g’oyasi, mazmuni, syujetida jiddiy o’zgarish bo’lmaydi.

Sintezlashgan folklorizmni asar syujetidan ajratib olish mumkin emas, sababi u asarning syujetiga organik singib ketadi. Asar butunlay folklor syujeti asosiga qurilgan bo’lishi ham mumkin.

Stilizatsion folklorizm biror-bir folklor janrining (masalan, afsona, rivoyat, ertak, latifa, lof, askiya, alla kabilar) mazmuni yoki shakli saqlanishidan yuzaga keladi. Bu janr stilizatsiyasi hisoblansa, folklorning ma’lum bir an’anaviy motivi yoki obrazi yangicha ruhda qayta ishlansa, motiv va obraz stilizatsiyasi amalga oshadi.

Intuitiv folklorizm – bu folklor voqeligiga mutanosib bo‘lgan folklorizmning o‘ta kuchli turi. Unda asarning folklor bilan aniq bog‘liqligi barobarida o‘zi mustaqil ham ekani kuzatiladi. U go‘yo yangi folklor ishlab chiqarish vositasi bo‘lib ko‘rinadi. Shu bilan birga, folklor voqeligining asarga singdirilishi, uning o‘zgarishi shu qadar tushunarsiz yo‘llar bilansodir bo‘ladiki, ijodkor xuddi folklorning tashuvchisi bo‘lib tuyuladi. Biroq ijodkor o‘zi foydalanayotgan folklor materiali bilan unchalik keng ko‘lamda tanish bo‘lmasligi yoki undan birinchi foydalangan kishi bo‘lmasligi mumkin. Ijodkorning xalq an‘analari bilan juda cheklangan holda tanish bo‘lishi esa uning folklor-mifologik modellardan intuitiv ravishda foydalanishiga to‘sqinlik qilmaydi.

“Tabiiy folklorizm” atamasi ham fanda ishlatilgan. Kuzatishlarimiz o‘zbek adibi O‘.Hoshimovning asarlari poetikasi folklor bilan yaqinligini ko‘rsatadi. Ularda xalq afsona, rivoyat, qo‘shiqlariga xos bo‘lgan syujet holatlari, parchalar aniqlangan. Adib asarlari orasida o‘zbek folklorining syujetlari va ramzlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanuvchi dalillar mavjud. Adib ijodidan olingan quyidagi parchada esa tabiat bilan bog‘liq xalqimiz odati tasviri berilganligi e‘tiborni tortadi: “Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko‘loplatip suv separ, kun bo‘yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo‘shilib, ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo‘lib qolar edi [9].

Xulosa. Shunday qilib, folklor prinsiplarining o‘zgarishi va modifikatsiyasi, birinchi qarashda, folklorizmning turli xil, ammo juda yaqin usullarini keltirib chiqaradi. Ko‘pincha adabiy asarlarda folklorizmning har xil turlari birlashadi. Folklorizm turlarini ajratib ko‘rsatish uchun, avvalo, uning uslubini belgilaydigan ma‘lum bir davrdagi badiiy fikrlash tendensiyalarini tahlil qilish lozim va shunga mos ravishda yozuvchining badiiy tafakkurining individual xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ковалёва Р.М. Восточнославянский фольклор и литература: типология фольклоризма Архивная копия от 2 января 2019 на Wayback Machine // Электронная библиотека БГУ.
2. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir. // O‘zbek tili va dabiyoti, 1980, 4-son, – B.40-41.
3. Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1982, 2-son, – B.50-55.
4. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // O‘zbek tili va dabiyoti, 1980, 4-son, 37-45-betlar. B.42-44.
5. Sarimsoqov B. – B.42.
6. Yormatov B. – Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1982, 2-son, 55-58-betlar; yana: Strilazitsiya xarakterdagi folklorizmlar. // O‘zbek tili va dabiyoti, 1984, 3-son. betlar yana: Hozirgi o‘zbek tili lirikasidagi sintezlashgan folklorizmlar xususida // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985, 2-son, 35-39-betlar; B.57-58.
7. Yormatov B. – B.17.
8. O‘tkirHoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.5.
9. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.5.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).